

DOI: 10.5281/zenodo.15695614

Link: <https://zenodo.org/records/15695614>

KORXONALARDA MOLİYAVIY XAVFSIZLIK ZAXIRASI: SHAKLLANISH OMILLARI VA TAHLILIY KO'RSATKICHLAR

*Chinberdiyeva Lazokatxon Raxmatjonovna
Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy xavfsizlik zaxirasini shakllantirish va tahlil qilish masalalari yoritilgan. Moliyaviy zaxiralarning samarali boshqaruvi orqali ishlab chiqarish xarajatlari tarkibini maqbullashtirish, foydalilikni oshirish hamda strategik moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda qo'llaniladigan asosiy tahliliy yondashuvlar ko'rib chiqilib, amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy xavfsizlik zaxirasi, moliyaviy barqarorlik, zararsizlik nuqtasi, daromadlilik chegarasi, xarajat-hajm-foyda tahlili, ishlab chiqarish xarajatlari, moliyaviy boshqaruv.

Bozor iqtisodiyoti chuqurlashib borayotgan hozirgi sharoitda korxonalar o'z faoliyatini samarali tashkil etishi, mavjud resurslardan oqilona foydalanishi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayni paytda mahsulotni ishlab chiqarishdan ko'ra uni muvaffaqiyatli sotish jarayonida ko'proq muammolar vujudga kelayotgani kuzatilmoqda. Bunga sabab — bozor mexanizmlarining kuchayib borishi, mulkchilik shakllarining ko'payishi, erkin raqobat muhitining qaror topishi, shuningdek, kichik va o'rta tadbirkorlik sub'yektlarining faol bozorga kirib kelayotganidadir.

Kichik va o'rta biznes vakillari ishlab chiqarish faoliyatini bozordagi talab va taklif asosida moslashtirib borish imkoniyatiga ega bo'lgan mustaqil iqtisodiy sub'yektlar hisoblanadi. Ular o'zlarining moslashuvchanligi, ishlab chiqarish hajmining nisbatan kichikligi va texnologik soddaligi sababli bozordagi vaziyatga tezda moslasha olishadi. Shu bois ularning soni ortib borishi yirik ishlab chiqaruvchilarga yangi bosqichdagi muammolarni yengib o'tish vazifasini yuklamoqda. Jumladan, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish, brend obro'sini saqlab qolish, mahsulot assortimenti va sifatini oshirish, xaridorlar ehtiyojlarini puxta o'rganib, ishlab chiqarishni shunga moslashtirish kabi masalalar dolzarblik kasb etmoqda.


Bunday sharoitda ishlab chiqarish korxonalarining moliyaviy xavfsizligini ta'minlash, ya'ni kutilmagan moliyaviy xatarlar va bozor tebranishlariga qarshi tura olish qobiliyatini shakllantirish katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, moliyaviy xavfsizlik zaxirasiga ega bo'lish, moliyaviy oqimlarni boshqarish, barqarorlikni mustahkamlash va investitsiyaviy imkoniyatlarni saqlab qolish — korxonaning uzoq muddatli muvaffaqiyatining garovidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy barqarorlik — bu korxonaning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarishi, foyda keltiruvchi investitsion faoliyatni yuritish va ishlab chiqarish jarayonini izchil rivojlantirish salohiyatidir. Bunday holatni ta'minlash uchun turli tahliliy usullardan foydalanish zarur bo'lib, ularning eng muhimlaridan biri — **zararsizlik nuqtasini aniqlash orqali moliyaviy xavfsizlik**

zaxirasini baholashdir. Ushbu yondashuv korxonaning foyda olish boshlanadigan hajmini aniqlash bilan birga, uning moliyaviy mustahkamligini belgilovchi ko'rsatkich sifatida xizmat qiladi.

Shunday qilib, korxonaning raqobatbardoshligi, barqarorligi va strategik rivojlanishi moliyaviy xavfsizlik zaxirasi mavjudligiga va undan oqilona foydalanishga bevosita bog'liqdir.

Xarajatlar – ishlab chiqarish hajmi – foyda (Cost – Volume - Profit) CVP tahlilini amalga oshirish yuqoridagi masalalarga yechim topishga yordam beradi.



1-rasm. CVP tahlilining asosiy elementlari va ularni aniqlash tartibi

Bu yerda

T – mahsulot sotishdan tushgan tushum;

Xo'z – o'zgaruvchan xarajat;

Xd – o'zgarmas xarajat;

Bm – mahsulot birligining bahosi;

F – foyda;

Th – haqiqiy tushum;

To – ostonaviy tushum.

Ostonaviy tushum zararsizlik nuqtasiga to'g'ri keluvchi mahsulot hajmini (Mz) mahsulot birligining bahosiga (Bm) ko'paytmasi asosida topiladi:

$$To = Mz * Bm$$

Demak, moliyaviy xavfsizlik zaxirasi quyidagicha aniqlanadi:

$$MXZ = Th - (Xd/Bm - Xo'z) * Bm$$

Moliyaviy xavfsizlik zaxirasini natija (Y) deb hisobga olib uning o'zgarishiga sotishdan tushgan tushum (S), o'zgarmas xarajat (F), bir birlik mahsulot bahosi (P), bir birlik mahsulotga to'g'ri keluvchi o'zgaruvchan xarajat (V) omillarining ta'sirini o'rganish uchun quyidagi formulani keltirib chiqaramiz:

$$Y = S - (F/P - V) * P$$

Zanjirli bog'lanish usuli yordamida shartli ko'rsatkichlarni keltirib chiqaramiz:

Natijaning o'tgan davrdagi ko'rsatkichi: $Y_0 = S_0 - (F_0/P_0 - V_0) * P_0$

Birinchi shartli qo'rsatkich: $Y(1s) = S_1 - (F_0/P_0 - V_0) * P_0$

Ikkinchi shartli ko'rsatkich: $Y(2s) = S_1 - (F_1/P_0 - V_0) * P_0$

Uchinchi shartli ko'rsatkich: $Y(3s) = S_1 - (F_1/P_1 - V_0) * P_1$

Natijaning joriy yilgi ko'rsatkichi: $Y_1 = S_1 - (F_1/P_1 - V_1) * P_1$

1-jadval

"Andijondonmahsulot" AJning moliyaviy xavfsizlik zaxirasi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili (un mahsuloti misolida)

Ko'rsatkichlar	2022 yil Y0	2023 yil Y1	Farq (+;-) ΔY	Moliyaviy barqarorlik zaxirasining shartli ko'rsatkichlari			Omillar ta'siri
				Y(1s)	Y(2s)	Y(3s)	
Sotishdan tushgan tushum (ming so'm)	1257016 35	8349075 4	- 4221088 1	8349075 4	834907 54	8349075 4	- 4221088 1
O'zgarmas xarajat (ming so'm)	3038030 9	2102012 9	- 9360180	3038030 9	210201 29	2102012 9	3568910 7
Bir birlik mahsulot o'rtacha bahosi (so'm)	4564	4200	-364	4564	4564	4200	- 2583691 9
Bir birlik mahsulotga to'g'ri keluvchi o'rtacha o'zgaruvchan xarajat (so'm)	3367	3050	-317	3367	3367	3367	2921467 7
Moliyaviy xavfsizlik zaxirasi (ming so'm)	9865603	6721587	- 3144016	- 3234527 8	334382 9	- 2249309 0	- 3144016

Natijaga omillar ta'sirini keltirib chiqaramiz:

Moliyaviy xavfsizlik zaxirasining o'zgarishiga sotishdan tushgan tushumning ta'siri:

$$YS = Y(1s) - Y0 = (-32345278) - 9865603 = -42210881$$

Moliyaviy xavfsizlik zaxirasining o'zgarishiga o'zgarmas xarajat ta'sirini hisoblaymiz:

$$YF = Y(2s) - Y(1s) = 3343829 - (-32345278) = 35689107$$

Moliyaviy xavfsizlik zaxirasining o'zgarishiga bir birlik mahsulot bahosining ta'siri:

$$YP = Y(3s) - Y(2s) = (-22493090) - 3343829 = -25836919$$

Moliyaviy xavfsizlik zaxirasining o'zgarishiga bir birlik mahsulotga to'g'ri keluvchi o'zgaruvchan xarajatning ta'siri:

$$Yv = Y1 - Y(3s) = 6721587 - (-22493090) = 29214677$$

Moliyaviy xavfsizlik zaxirasining o'zgarishiga barcha omillarning ta'siri:

$$\Delta Y = Y1 - Y0 = YS + YF + YP + Yv = 6721587 - 9865603 = (-42210881) + 35689107 + (-25836919) + 29214677 = -3144016$$

Tahlil natijalariga ko'ra moliyaviy xavfsizlik zaxirasi 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 3144016 ming so'mga kamaygan. Mahsulot sotishdan tushgan tushumning 42210881 so'mga kamayishi moliyaviy xavfsizlik zaxirasining 42210881 so'mga kamayishiga olib kelgan. O'zgarma xarajatning 9360180 ming so'mga kamayishi moliyaviy xavfsizlik zaxirasining 35689107 ming so'mga, bir birlik mahsulotga to'g'ri keluvchi o'zgaruvchan xarajatning 317 so'mga kamayishi moliyaviy xavfsizlik zaxirasining 29214677 ming so'mga ko'payishiga olib kelgan. Bir birlik mahsulot bahosining 364 so'mga kamayishi esa moliyaviy xavfsizlik zaxirasining 25836919 ming so'mga kamayishiga olib kelgan. Demak, sotishdan tushgan tushum qanchalik darajada o'zgarsa moliyaviy xavfsizlik zaxirasi ham shu darajada o'zgarar ekan. Mahsulot sotishdan tushgan tushum 1 birlikka o'zgarsa moliyaviy xavfsizlik zaxirasi ham 1 birlikka o'zgaradi. Tadqiqot davomida o'zgarma xarajatning 0,31 (1-21020129/30380309) punktga kamayishi moliyaviy xavfsizlik zaxirasini 5,31 (35689107/6721587) punktga, bir birlik mahsulotga to'g'ri keluvchi o'rtacha o'zgaruvchan xarajati 0,09 (1-3050/3367) punktga kamayishi natijaning 4,35 (29214677/6721587) punktga oshishiga olib kelgan. Bir birlik mahsulotning o'rtacha bahosining 0,08 (1-4200/4564) punktga kamayishi natijaning 3,84 (25836919/6721587) punktga kamayishiga olib kelgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, korxonaning moliyaviy xavfsizlik zaxirasiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash va ularni tahlil qilish orqali barqaror moliyaviy boshqaruv tizimini shakllantirish mumkin. Jumladan:

Birinchi darajali omil sifatida – **bir birlik mahsulotga to'g'ri keluvchi o'zgaruvchan xarajatlari** ajralib turadi. Bu xarajatlari ishlab chiqarish hajmiga bevosita bog'liq bo'lgani bois, ularning dinamikasini doimiy monitoring qilish, ortiqcha sarf-xarajatlarni aniqlash va bartaraf etish korxona moliyaviy barqarorligining muhim omilidir.

Ikkinchi darajali omil — bu **bir birlik mahsulotning bahosi** hisoblanadi. Bozor sharoitida narxlarni qat'iy emas, balki dinamik usulda shakllantirish, ya'ni raqobatchilar harakati, xaridorlar talabi, ishlab chiqarish tannarxi va boshqa omillarga mos ravishda narx siyosatini belgilash zarur. Bu orqali korxona nafaqat rentabellikni saqlab qoladi, balki daromadlarni oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Uchinchi darajali omil — bu **o'zgarma (doimiy) xarajatlardir**. Ularning pasaytirilishi korxonaning mavjud imkoniyatlaridan oqilona foydalanish orqali amalga oshirilishi mumkin. Jumladan, energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish, binolar va uskunalardan samarali foydalanish, ijaraga olish o'rniga aktivlarni egallash yoki birlashtirish orqali bu xarajatlarni kamaytirish yo'llari ko'rib chiqilishi lozim.

Shuningdek, **CVP (Cost–Volume–Profit)** tahlili korxona xarajatlari, ishlab chiqarish hajmi va foyda o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Bu uslub:

zararsizlik nuqtasini aniqlash orqali korxona daromad olmaydigan, lekin zarar ham ko'rmaydigan minimal ishlab chiqarish hajmini belgilaydi;

moliyaviy xavfsizlik zaxirasini baholash orqali bozor tebranishlariga qanchalik dosh bera olishini ko'rsatadi;

daromadlilik chegarasini aniqlash orqali foyda olish potentsialining qaysi darajada ekanini ko'rsatadi.

Bu ko'rsatkichlar korxona rahbariyatiga moliyaviy risklarni oldindan ko'rish, tezkor va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, moliyaviy xavfsizlik zaxirasi tahlili — bu nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi vosita, balki korxonani bozor sharoitlariga tayyor holda moslashtiruvchi strategik mexanizm hamdir. Uni tizimli ravishda qo'llash korxona faoliyatining samaradorligini oshiradi, raqobatbardoshlikni mustahkamlaydi va moliyaviy xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vahobov A.V, Ishonqulov N.F, Ibrohimov A.T. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. –T.: "Iqtisod-moliya", 2013. -600 b.
2. Vaxrushina M.A. Upravlencheskiy analiz: Uchebnoe posobie. M.:Omega-L, 2005. -432 s.
3. Pardayev M.Q, Xasanov B.A, Isroilov J.I, Po'latov M.E, Eshboyev O'.T, Holiqulov A.N. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. –T.: Cho'lpon, 2012. -400 b.
4. Pardayev M.Q, Hasanov B.A, Isroyilov J.I, Xoliqulov A.N. Iqtisodiy tahlil. Darslik. T.: TDIU va SamISI, 2011.-239 b.
5. Popova L.B., Golovina T.A., Maslova I.A. Sovremenniy upravlencheskiy analiz: Teoriya i praktika kontrollinga. –M.: Delo i servis, 2006. -272 s.
6. Xasanov B.A., Xashimov A.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2013. 312 b.
7. Blank I.A. Upravleniye finansovoy bezopasnostyu predpriyatiya. M.: Elga, 2009. 776 s.
8. Burxanov A.U. Moliyaviy xavfsizlik. O'quv qo'llanma. –T.: Ma'naviyat, 2019. 224 b.
9. Ishonqulov N.F., Pardaev M.Q., Ibrohimov A.T., Misirov K.M., Nurmanov U.A. Iqtisodiy tahlil nazariyasi / darslik: -T.: "Sano-standart", 2014-yil. - 336-b.
10. Umarova N.X. Moliyaviy barqarorlik va moliyaviy xavfsizlikning bog'liq jihatlari. "Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management studies" ilmiy-elektron jurnal. Volume 1, Issue 3, March 2024. 212-215 b.
11. Chinberdiyeva L.R. Chinberdiyeva L.R. Ishlab chiqarish xarajatlarining korxona samaradorligiga ta'sirini baholash. "Science and education in agriculture" ilmiy jurnal. Volume 2, Issue 2. №2 2024. 157-161 b.
12. Chinberdiyeva L.R. The use of analytical methods in the strategic planning process in an enterprise. "International journal of artificial intelligence" ilmiy-elektron jurnal. Volume 05, Issue 05, 2025. ISSN: 2692-5206. 1744-1746 b.